

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDURAZAKOVA NURJAMAL SALIMATDINOVNA

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING O'QISH
SAVODXONLIGINI MATN TAHLILI ASOSIDA BAHOLASH
(Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili
asosida baholash..... 3

Абдуразакова Нуржамал Салиматдиновна

Оценка читательской грамотности учащихся начальных классов на
основе анализа текста..... 25

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna

Assessment of primary school pupils' reading literacy based on text analysis.... 49

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDURAZAKOVA NURJAMAL SALIMATDINOVNA

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING O'QISH
SAVODXONLIGINI MATN TAHLILI ASOSIDA BAHOLASH
(Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped7774 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferat uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali www.ziyounet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sapa Matchanov
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Kambarova Saodat Irkinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Asamatdinova Jamila Paxratdinovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "24" 10 kuni soat "14⁰⁰", dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (880) raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "4" 10 dagi 2 raqamli restr bayonnomasi).



K.K.Orazimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

J.O.Tanirbergenov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash kотиbi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.A.Yusupov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlariga beriladigan baho ularning intellektual faoliyati darajasi va ma'naviy sifatlarini belgilovchi asosiy mezon sifatida qaraladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatini haqqoniy baholashda ular tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tasniflash, izohlash va umumiy miqdorini hisobga olish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limdan o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn ustida ishlash orqali baholashda bilim, ko'nikma va malakalarning to'liqligi, izchilligi va ularning rivojlantiruvchi xarakterda ekanligi ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o'quvchilar bilimni baholashga individual yondashish, ularni hissiy-irodaviy, individual va psixologik xususiyatlarini rivojlantirishga doir izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, boshlang'ich sinflardan ta'lim subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida qiziqish va ehtiyojlarini ta'minlash matn ustida ishlash bilan bog'liq zamonaviy yondashuvlarni taqozo etadi. Bu borada tinglab tushunish, fikrni og'zaki va yozma bayon qilish, o'qish kabi adabiy-nutqiy va badiiy asarni tahlil qilish kabi fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda yosh avlodning mufavvaqiyatli ta'lim olishiga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Adabiy ta'limga oid DTS, o'quv dasturlari va 4K modeliga asoslangan yangi avlod darsliklari yaratilmoqda. Ta'lim oluvchilarda kreativlik, yangiliklarni ijobiy qabul qilish, ijodiy ishlash va mantiqiy fikrlashga doir qulay muhit yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"¹ vazifalarining belgilanishi o'quv dasturlaridagi har bir mavzuning adabiy ta'lim maqsadiga mosligi, o'quv fanlari o'rtasidagi integratsiya va aloqadorlikni ta'minlash, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish, ularni kichikligidan o'quv tadqiqotlariga yo'naltirish, o'z qarashlariga boshqalarni ham ishonтира olish malakalarini rivojlantirish bilan bog'liq mexanizmni yaratishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot Respublika fan texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boshlang‘ich ta‘limda matn ustida ishlash metodikasi turli ilmiy maktablarda, jumladan xorijiy, mintaqaviy va milliy darajada keng tadqiq qilingan. Xususan, xorijiy ilmiy izlanishlarda pedagogik o‘lchov, test va baholash hamda matn ustida ishlash muammolari chuqur o‘rganilib, bu borada F.Lord, M.Novik, Ch.Stansfield, J.Sugarman, L.Villeges hamda Ch.Aldersonlarning tadqiqotlari alohida e‘tiborga molikdir.

Ushbu tajribalar bilan uyg‘un holda, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston olimlari ham matn ustida ishlash metodikasini milliy ta‘lim konteksti asosida chuqur o‘rganganlar. Xususan, Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash metodikasi F.H.Aminova, X.S.Bakiyeva, N.Bekniyazova, A.Hamroyev, O.Eshimbetov, K.Qosimova, G.Mamatova, S.Matchanov, A.Nisanbayeva, Sh.Sariyevlar, A.Nauruzbaeva, G.Bekimbetova, A.Najimova, A.Embergenova, Q.Yusupov, R.Muratkamalovalar tomonidan tadqiq etilgan. Ta‘lim bosqichlarida baholash va uning o‘ziga xos xususiyatlari G.Q.Hasanova, K.Jalilov, Z.N.Matyakubova, Sh.Abduraimovlarning izlanishlarida kuzatiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutining ”Qoraqalpoq tilini o‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion o‘qitish metodlari va texnologiyalari” mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida (2019-2023) bajarilgan

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish;
- boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash mexanizmini takomillashtirish;
- boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning didaktik ta‘minotini takomillashtirish;
- boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 34-, Kegeyli tumanidagi 9-, 17-, Chimboy tumanidagi 19-, Mo'ynoq tumanidagi 10-, Navoiy viloyati Kenimex tumanidagi 31-maktablardan 664 nafar o'quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, suhbat, taqqoslash, umumlashtirish, tavsiya etilgan metodikaning samaradorligini tekshirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini baholashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, o'quvchilarning badiiy matnlarni o'zlashtirishiga doir adabiy ta'lim vositalarini tanlash, ergonimik shart-sharoitlarni yaratish hamda yosh xususiyatlari, bilish jarayonlarining rivojlanganini inobatga olish, o'quv materiallarini o'zlashtirishga motivatsiya beruvchi omillarni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash mexanizmi matnda berilgan ma'lumotlarni aniqlash, unga oid xulosalarni shakllantirish, tegishli ma'lumotlarni talqin qilish, umumlashtirish, mazmuni va til xususiyatlari, tuzilishini tahlilga tortish hamda munosabat bildirish kabi PIRLS xalqaro baholash dasturi mezonlariga asoslanish orqali takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning didaktik ta'minoti amaliy-faoliyatli yondashuv, tizimlilik, davomiylik, badiiylik, ifodaviylik, interfaollik, onglilik, ko'rsatmalilik, ko'p variantlilik kabi nutq va tafakkur uyg'unligiga xizmat qiluvchi tamoyillarning integratsiyasiga amal qilish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash metodikasi o'quvchilarning intellektual faoliyati darajasi va axloqiy-estetik rivojlanishiga hissiy-estetik ta'sir ko'rsatuvchi psixolingvistik, lingvodidaktik va adabiy-metodik yondashuvlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashga doir "Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash metodikasi" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash bo'yicha ijodiy topshiriqlar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida 2022–2023-yillarda bajarilgan II-4721101717 raqamli

“Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot intituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va qoidalariga muvofik ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik yondashish, adabiyotni o‘quv fani va san‘at turi sifatida o‘qitish metodologiyasi bo‘yicha respublikamiz va chet ellik olimlar qarashlari, amaliyotchi o‘qituvchilarning tajribalariga tayanilgani, tadqiqot vazifalariga mos yondashuvlar tanlangani, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari nazariy va amaliy tasdig‘ini topgani, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani; xulosa va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashga doir pedagogik-psixologik va metodik qarashlar hamda nazariy yondashuvlarning metodologik asoslari takomillashtirilgani, matn ustida ishlash usullari ilmiy-metodik jihatdan dalillangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash mazmunini zamonaviy yondashuvlar orqali tashkil etish, boshlang‘ich adabiy ta‘lim maqsadiga mos metod va usullarni joriy etish, “O‘qish” darsliklari, “O‘qituvchi kitobi”, metodik qo‘llanmalar yaratish, o‘quvchilar badiiy tafakkuri va estetik didini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiyalar sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini baholashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari o‘quvchilarning badiiy matnlarni o‘zlashtirishlariga doir ta‘lim vositalarini tanlash, ergonomik shart-sharoitlarni yaratish hamda yosh xususiyatlari, bilish jarayonlarining rivojlanganini inobatga olish, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga motivatsiya beruvchi omillarni aniqlashtirish asosida takomillashtirishga doir taklif va ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2022-2023-yillarda bajarilgan II-4721101717 raqamli “Xizmat ko‘rsatish ob’ektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2024-yil 23-sentabrdagi 1429-son ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholashning didaktik tahlilni samarali qo‘llashga doir yondashuvlarning imkoniyatlari ortishiga erishilgan;

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash mexanizmi va didaktik ta'minoti PIRLS xalqaro baholash dasturi mezonlariga asoslanish hamda nutq va tafakkur uyg'unligiga xizmat qiluvchi tamoyillarning integratsiyasiga doir taklif va xulosalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqolpog'iston filialida bajarilgan F3-2016-0908165532-raqamli "Qoraqolpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" fundamental loyihagini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqolpog'iston filialining 2024-yil 15-martdagi 119-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash mexanizmini takomillashtirishga xizmat qilgan;

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida ishlash, matnni tushinib o'qish va baholashga oid metodik tavsiyalar "Baslawish talimde tekst ustinde islew metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida batafsil yoritilgan. Aynan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning didaktik ta'minoti amaliy-faoliyatli yondashuv, tizimlilik, davomiylik, badiiylik, ifodaviylik, interfaollik, onglilik, ko'rsatmalilik, ko'p variantlilik kabi nutq va tafakkur uyg'unligiga xizmat qiluvchi tamoyillarning integratsiyasi asosida o'qitishga doir o'qituvchilar uchun metodik taklif va tavsiyalar yordamchi material sifatida foydalanilgan. (Qoraqolpog'iston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, 2025-yil 14-maydagi, 47-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu qo'llanma boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash jarayonini samarali tashkil etish, baholash mezonlarining izchilligi va shaffofligini ta'minlash hamda o'qituvchilarning metodik savodxonligini oshirishga xizmat qilgan.

boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash metodikasi o'quvchilarning intellektual faoliyati darajasi va axloqiy-estetik rivojlanishiga hissiy-estetik ta'sir ko'rsatuvchi psixolingvistik, lingvodidaktik va adabiy-metodik yondashuvlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari "Baslawish talimde tekst ustinde islew metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli 759136 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini matn tahlili vositasida baholash metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilangani. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy-metodik ish, jumladan, 1ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Mazkur bobning ta'lim sifatini muttasil oshira borish uning mavjud holati va rivojlantirish tendensiyalarining uzliksiz monitoringini olib borish, yutuq va kamchiliklarini obyektiv va adekvat baholashga doir **“Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash-ta'limiy muammo sifatida”** deb nomlangan birinchi bo'limida so'nggi yillarda xalq ta'limi tizimini modernizatsiya qilish ta'lim mazmuni va shaklida ko'plab yangilanishlariga asos bo'lgani ushbu yangilanishlarda o'quvchilarning davlat ta'lim standartida ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishini to'laqonli ta'minlash ta'lim sifatini baholashda asosiy mezon vaziyfasini o'tashi xususida so'z boradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-dekabrda “Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida”gi 646-son qarorining qabul qilinishi ayni muammoning dolzarbligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, ta'lim tizimida baholash ta'lim natijasini belgilashning yetakchi omilidir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishdek global muammo shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'zligini anglash, dunyoqarashini shakllantirish, e'tiqodini mustahkamlash, kishilik dunyosi haqidagi tasavvur-tushunchasini boyitish orqali hayotga tayyorlashda o'qish savodxonligi darslari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Uning yechimi bevosita boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligi natijasini baholashga borib taqaladi.

Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari, tarixiy-badiiy matnlarni o'qituvchilarning maxsus izohsiz tushuntirish mushkul. Chunki, o'qituvchi matndagi so'z va iboralarni o'z tushunchasidagi mavjud so'z va iboralar orqali qabul qiladi. O'qimishli kishilarning lug'at boyligi o'rtacha o'n-o'n ikki ming so'zdan iborat bo'lishi nazarda tutilsa, o'quvchilar nutqining chegaralanganini sezish qiyin emas. Professor Sh.Yusupova ta'kidlaganidek, **“O'quvchilar matn yaratish va matn ustida ishlash davomida tasvirlangan voqea-hodisalarni idrok qilishi, mohiyatini anglashi, munosabat bildirishi kabi didaktik maqsadlarni amalga oshirishlari natijasida tafakkuri va nutqi rivojlanadi. Gaplarning, jumalarning aloqadorligi**

ko‘rsatilgan ijodiy matn ma’lum bir fikr atrofida birlashadi – butunga aylanadi, uni o‘rganish esa ijodiy tafakkur o‘shiga sharoit yaratadi”².

Ma’lumki, nutqda insonning fikrlari bilan birgalikda his-tuyg‘ulari ham ifodalanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni o‘qish va yozishga o‘rgatish orqali nutq o‘stirish bir qator tamoyillarga bog‘liq bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili.
2. Amaliy-faoliyatli yondashuv tamoyili.
3. Hissiy-estetik yondashuv tamoyili.
4. Tizimlilik va davomiylik tamoyili.
5. Badiiylik va ifodaviylik tamoyili.
6. Interfaollik va onglilik tamoyili.
7. Ko‘rsatmalilik tamoyili.
8. Ko‘p variantlilik tamoyili.
9. Fanlararo aloqadorlik tamoyili.
10. Hamkorlik tamoyili.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini aniqlashning quyidagi omillarini oldindan belgilab olish zarur:

1. “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” darsliklaridagi o‘quv materiallarining o‘quv-uslubiy ta’minotini ta’minlash.

2. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish darajasini belgilash kriteriyalarini ishlab chiqish.

3. O‘qituvchining pedagogik mahoratini, o‘quv materiali ustida o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar tayyorlash.

Mazkur mezonlar asosida 3-sinf “Ona tili ham o‘quv savodxonligi”, 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsliklari o‘quv materiallarining dastur talablariga ko‘ra berilishi ta’lim samaradorligiga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘quvchilarni darsga jalb etishda murakkabliklar mavjudligini, o‘qituvchilarning ta’lim metodlari va usullaridan samarali foydalana olmayotganliklari bilan izohlash mumkin. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga mas’ul malaka oshirish institutlari, maktab rahbarlari o‘qituvchilar faoliyatiga ta’sir qiluvchi holatlarni o‘rganishi va ularni yaxshilashga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishlari umumiy o‘rta ta’lim oldidagi dolzarb muammolardandir.

Mazkur bobning “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning didaktik tamoyillari” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Matn ustida ishlash metodikasi nafaqat asar mazmunini o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning nutqiy, tafakkuriy hamda axloqiy-estetik rivojlanishini ta’minlashning muhim vositasi sifatida izohlanadi. Galperin, Xarchenko, Bakiyeva, Doniyorov va Yusupova kabi olimlarning fikrlari asosida matn tushunchasi, uning

² Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида). Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2005. – В. 14.

badiiy, obrazli xususiyatlari va o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ochib beriladi.

Shuningdek, badiiy matnni o'rganish jarayoni bosqichma-bosqich (kirish mashqlari, asarni o'qish, tahlil qilish va yakuniy mashqlar) amalga oshirilishi, bu orqali mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni shakllantirish ta'kidlanadi. Paragrafda yosh xususiyatlarini hisobga olish, amaliy yondashuv, emotsional-estetik munosabat, tizimlilik va davomiylik, badiiylik va ta'sirchanlik, interfaollik va onglilik, ko'rgazmalilik, ko'p variantlilik, fanlararo aloqadorlik hamda hamkorlik kabi asosiy didaktik tamoyillar tizimli ravishda asoslab berilgan. Natijada, matn ustida ishlash jarayonining o'quvchilarda o'qish savodxonligi, mustaqil fikrlash, badiiy did va estetik zavqni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda o'qituvchi mahorati va metodik yondashuvining ta'lim samaradorligiga ta'siri ochib ko'rsatiladi.

Bobdagi "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning mavjud holati" nomli uchinchi bo'limida boshlang'ich sinflarining o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkuri va o'quv-biluv ko'nikmalari rivojida alohida o'rin tutishi, shu jihatdan o'quvchilariga badiiy matn bo'yicha zarur ma'lumotlar berish, matnlarning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish, matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, turli janrdagi asarlar ustida ishlash metodikasi bo'yicha adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi tahlilga tortiladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma, malakalari darajasiga ko'ra amalga oshiradi. O'quvchilarni asar matnini o'qishga tayyorlashda, avvalo, ularni matn mavzusi, tili, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. O'qish faoliyati ham nutqning alohida ko'rinishi hisoblanadi. Badiiy matndan shunchaki ma'lumot emas, balki, yetakchi g'oya va uning badiiy ifodasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois "o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini (so'z boyligi, ijodiy tafakkur darajasini kengaytirish, ijtimoiy muloqot – yozma va og'zaki ifodali fikrlash mahoratini yuksaltirish, mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish) oshirish ... matn turlarini farqlash (nazmiy, nasriy, ilmiy, badiiy, publisistik, grammatik, ma'rifiy, badiiy-ramziy, xat-hujjat, monologik, diologik) ga o'rgatish" metodik zaruratdir. Matnning semantik yaxlitligi mavjud voqelikdagi bog'lanish hamda ijtimoiy munosabatlar, tabiat hodisalari, inson, uning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi, jonsiz tabiat obyektlari bilan bog'liqliklarni aks ettiradi. Nutq predmetining birligi gap mavzusi hisoblanadi. Mavzu esa matnning semantik o'zagi, uning ixchamlashtirilgan va umumlashtirilgan mazmunidir. Matn yaratishning og'zaki turi ma'lum bir nutq vaziyatiga bog'liq bo'lsa, yozma matn yaratish vaziyat olish bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Buning sabablari quyidagilar:

1. Matnni og‘zaki yaratish tamoyilida fikr va ifoda bir vaqtning o‘zida, o‘zaro aloqadorlikda yuzaga kelishi hamda nutq vaziyati bilan bog‘liqligi aloqaning paralingvistik vositalar orqali ta‘minlanishiga asoslaniladi.

2. Matnni yozma yaratish tamoyilida fikrning tug‘ilishi va uning o‘sha ifodaga ko‘chirilishi, shuningdek, suhbatdoshlar o‘rtasida bevosita aloqaning yo‘qligi (zamon va makonda uzilishning mavjudligi) muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma matnning vaziyat bilan bog‘liqligi leksik vositalar va sintaktik tizimlar orqali aks ettiradi.

3. Og‘zaki matn yaratish tamoyilida nutq vaziyati manzarasini tasvirlash talab qilinadi. Bu aralash nutq (matn) shaklini yuzaga keltiradi.

O‘qish savodxonligi darslarida matn tahlili vositasida o‘quvchilarni baholashda o‘quv materiallarining o‘zlashtirilganligi, mazkur jarayonda ular duch keladigan qiyinchiliklar, ularning o‘zlashtirilmasligi sabablarini aniqlash egallangan bilimlar va axborotlarni qay darajada intellektual rivojlanganini tekshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash jarayonida ularning adabiy kompetensiyalari va intellektual-ma‘naviy faoliyat ko‘rsatish malakalarini real baholashda ularning kamchiliklarini tasniflash, izohlash va umumiy miqdori va sifatini e‘tiborga olish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash metodikasi”** deb nomlanadi. Uning **“Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash texnologiyasi”** nomli birinchi bo‘limida badiiy asar matni ustida ishlash bosqichlarini belgilashda, avvalo, uning san‘at turi sifatidagi xususiyatlari va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi haqida so‘z boradi.

O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni, tahlil jarayonida uning poetik vositalari bilan yaqindan tanishadi. Zero, tahlil badiiy matn zamiridagi ma‘noni chuqur o‘rganish imkonini yaratadi. Badiiy asar matni ustida ishlashda quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Matn ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlash.

2. Tahlilga oid dars bosqichlarini belgilash.

3. Savol va topshiriqlar tuzish.

4. Tahlilda qo‘llaniladigan metod va usullarni aniqlashtirish.

5. O‘quvchilarda shakllantirilishi zarur bo‘lgan bilim va kompetensiyalarni belgilash.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar matni ustida ishlashning quyidagi bosqichlari mavjud:

Birinchi bosqich (birinchi sintez)da matnni yaxlit idrok etish muhim jihat bo‘lib, asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirish nazarda tutiladi.

Ikkinchi bosqich (analiz) mazmuni voqealar rivojining bog‘lanishini belgilash, personajlarning xarakter xususiyatlarini aniqlash, asar kompozitsiyasini yoritish, mazmunini tasviriy vositalar bilan birgalikda tahlilga tortishdan iborat. Mazkur bosqichda qahramonlar tabiati, muallif nimani qanday tasvirligani, nima uchun shunday yondashgani diqqat markazida bo‘ladi.

Uchinchi bosqich (ikkinchi sintez) mazmuni personajlarning asosiy xususiyatlarini umumlashtirish, taqqoslash va baholash, asar g'oyasini aniqlash, badiiy asarni hayot bilan bog'lashdan iborat. Bunda qanday ma'lumotlarga ega bo'lganlik, asar nimaga o'rgatishi, muallif o'z nuqtai nazari va taassurotlarini qanday qilib yetkazganligiga baho beriladi.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

I. *Tanlab o'qish*. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, 4-sinfda B.Qayıpnazarovning "Qis" matnidan "Tabiatdagi o'zgarishlar berilgan qismlarni topib o'qing", X.Saparovning "Awilga kelgen kiyikler" hikoyasida o'lkamizning tabiati aks etgan o'rinlarni topib o'qing" kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Tanlab o'qishning yana ham murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bog'langan dalillarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan o'rinlarini topib o'qish hisoblanadi. Masalan, 4-sinfda X.Saparovning "Awilga kelgen kiyikler" hikoyasi yuzasidan topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Asardan otasining xatti-harakatlari tasvirlangan lavhalarni topib o'qing.

2. Bolaning bunday yo'l tutishi sababi ifodalangan o'rinni topib o'qing. Bunda o'quvchi biror qatnashuvchi shaxs o'zini qanday tutishini, nima sababdan shunday ekanligini tasdiqlash uchun matndan material tanlab o'qiydi.

II. *O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi*. Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilgan asari yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirish, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholash, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi.

III. *O'quvchilarni savol berishga o'rgatish*. O'rgatishning bu usuli matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi.

IV. *Matnni tasvirlash*. Mashqning bu turi matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, undan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o'quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Hozir maktab tajribasida izohli o'qish, ijodiy o'qish, adabiy o'qish usulidan, muammoli o'qitish metodlaridan, ilg'or pedagogik texnologiya metodlaridan ham keng foydalanilmoqda. Masalan, A.Atajanovning "Ana júregi" hikoyasini³ o'rganishda izohli o'qish metodidan foydalanish mumkin. Chunki bu asar matnida o'quvchilarga lug'aviy ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlar uchraydi. Masalan, hikoyadagi *arqan boyi, túyesihirli búk, setem algan, japatarmaqay, kóziniń tirisinde, qamsıqqanday* kabi so'zlar izoh talab etadi.

³ Berdimuratov E., Pirniyazov J., Allanazarov Q., Uspanova J. Oqiw kitabi 4-klass. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2017. – B. 159–162.

Metodik adabiyotlarda badiiy asar matnini tahlil qilishning uch usuli: *badiiy asarni yozuvchiga ergashib yaxlit o'rganish, obrazlar vositasida o'rganish, mavzuli-muammoli o'rganish* alohida ajratib ko'rsatiladi. Boshlang'ich sinflarda, asosan, matn asosidagi tahlildan foydalaniladi, ya'ni, o'qituvchi asarni tahlil qilishda asar matniga asoslanadi. Uni o'zgartirmagan holda ma'nosi va jozibasini o'quvchilarga yetkazib beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobidagi "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholashning metodik shartlari" nomli ikkinchi bo'limida boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslarida, ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan har xil janrga tegishli: hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrlardagi asarlarni o'qitish metodikasi tadqiq qilingan.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. "*Hiyleker qoraz*", "*Maqtanshaq qasqir*" kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'z'lari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Asar tahlili matnga tayangan holda quyidagi reja asosida amalga oshirish mumkin:

1. Qahramonning mardligi tasvirlangan o'rnini matndan topish. Uning o'quvchilarda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash.

2. Yaxshilik va nodonlik tasvirlangan o'rinni topib o'qish.

3. Asarda nima yuz berganini aniqlash. Bu o'rinni matndan topish.

4. Asar qaharmonining jasorati yana qaysi o'rinda ko'ringanini aniqlash.

5. Asardagi qaharmonga nima uchun tan berganini aytish.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.

2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.

3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.

4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.

5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish.

6. Har bir qismga sarlavha topish.

7. Hikoyaga reja tuzish.

8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).

9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Lirik janrga xos (she'riy) matnlar ustida ishlash. She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r

tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya'ni she'riy asarlar va lirik she'rlar o'qitiladi. She'riy hikoya, she'riy ertaklarda syujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir.

She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan asarni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan "*Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat madhiyasi*" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi "*tinishliq ham igbal*," "*diyqan baba napesi bar jerinde*," "*juwsan anqip*," "*awladdlar*," "*jurek torinde*," "*aydin keleshekke shaqirar zaman*," "*martlik, miynet*," "*erkin jaynap-jasnap*," "*mani bol aman*" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

She'riy asarlar ustida ishlash 3-,4-sinflarga kelib muallif nuqtai nazari, uning uslubi kabi masalalarga o'quvchilar e'tiborini qaratish orqali amalga oshiriladi. She'riy matnlar tahlilidagi qiyinchiliklardan biri shoir yaratgan tasviriy ifodaviylikka mustaqil ma'no berish asosida uning badiiy yaxlitligiga putur yetkazmaslikdir.

O'qish savodxonligi darslarida ifodali o'qish o'quvchilarga tinish belgilariga rioya qilishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinfni bitirgan o'quvchilar nuqtadan so'ng ovoznı pasaytirish, so'roq, undov belgilari qo'llanilgan o'rinlarda ovoznı zarur ohangda ifodalashga o'rganadilar. O'quvchilarnı gapda ishtirok etayotgan tinish belgilariga mos holda o'qishga o'rgatish yetarli emas. Buning uchun gapdagi tegishli mazmun-mundarijadan kelib chiqqan holda unda ifodalanayotgan ko'tarinkilik, ajablanish, hayrat, qayg'u kabi holatlarnı aks ettirish zarurligini anglash lozim.

"Ilmiy-ommabop matnning asosiy funksiyalaridan biri kommunikativlikdir, shuning uchun muallif matnı o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda yaratadi⁴.

Ilmiy-ommabop matndagi kognitiv ma'lumotni shakllantirishning lisoniy vositalari bir ma'noli ekvivalentlar, variant mosliklari va sintaktik transformatsiyalar ko'rinishidagi jummalarnı tarjima qilishda uchraydi. So'zlashuv leksikasi, emotsional baholovchi leksika, emotsional inversiyalar, frazeologik birliklar va majoziy obrazlarnı funksional jihatdan mos keladigan vositalar bilan, asosan, mos muqobillar bilan yoki ba'zan kompensatsiyalash usuli bilan tarjima qilinadi. Epitet, metafora, o'xshatish va troplar ko'proq bu vositalarning o'ziga xosligini saqlash bilan emas, balki, ularning matndagi funksional xususiyatlarini yetkazib berish bilan tarjima qilinadi.

Ushbu bobning "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash tizimini takomillashtirish" nomli uchinchi bo'limida o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarnı matn tuzishga o'rgatishda katta imkoniyatlarga ega, asarga sarlavha topish, rejasini tuzish, undan ajratib olingan bo'limlarnı nomlash, muallif yoki qahramonlarga

⁴ Гришечкина Г.Ю. Некоторые особенности синтаксиса в научнопопулярном тексте. № 3. – Орёл, 2009. – № 3. – С. 103–109.

maktublar yozish matn bilan ishlashdagi bir-birini takrorlamaydigan ish turlari tahlil qilingan.

O'quvchilarni ijodiy matn tuzishga o'rgatish, avvalo, unga xos xususiyatlar bilan tanishtirishdan boshlanadi

O'quvchilarga ijodiy matn tuzishni o'rgatishning muhim shartlaridan biri voqea-hodisani tanlashga o'rgatishdir.

Ijodiy matn tuzishning samarali usullaridan biri berilgan g'oyaga asoslanishdir. O'qituvchi va o'quvchilar tomonidan o'rta tashlangan g'oya matn uchun muhim material bo'ladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida o'quvchilar nutqini o'stirish tinglash, tushunish, gapirish, yozish va o'qish kompetensiyalarini shakllantirish hamda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birgalikda olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri turli maqsadlarda tashkil etilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli, o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi nisbatan qiyinroq.


Og'zaki nutq har bir kishidan o'z suhbatdoshining fikrini tez anglashni, suhbatda zarur bo'lgan so'zni tez topishni, har bir so'zning ma'nosini matnga bog'liq holda tushuntirishni, qo'llanadigan so'zning o'ziga mos sinonimini topib ishlatishni talab qiladi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinflarda o'quv samaradorligini matn tahlili asosida baholashning samaradorligi”** nomli uchinchi bobida “Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini matn tahlili asosida baholash usullari” hamda ularning samaradorligi matematik-statistik tahlil qilingan. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi darslari samaradorligini oshirishda o'quvchilarni badiiy matnlar yuzasidan mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asar tahlili bilan bog'liq mustaqil ishlarni darsning barcha bosqichlarida o'tkazish mumkin. Ayniqsa o'tilgan mavzularni mustahkamlash darslarida asosiy e'tibor mustaqil ishlar vositasida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilishi bilan g'oyat muhim didaktik vazifani bajaradi.

Badiiy matnni tahlil qilish asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishda asar mavzusi va g'oyasini, syujeti va kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi va badiiy til xususiyatlarini aniqlash asarning tarbiyaviy mohiyatini chuqur idrok etishga zamin yaratadi.

Demak, o'qish savodxonligi bo'yicha samaradorlikka erishish uchun ikki xil ko'rsatkich mavjud: sifat ko'rsatkichi va miqdor ko'rsatkichi. Sifat ko'rsatkichlarining mazmuni va sifat ko'rsatkichlari faoliyat mazmuni va usullarini o'zlashtirish shartlari bilan, miqdor ko'rsatkichlari esa ta'lim maqsadi va erishilgan haqiqiy bilim, ko'nikma va malakalar o'rtasidagi farqlar bilan belgilanadi.

O‘qish savodxonligi bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlari matn tahlili bo‘yicha ta’lim-tarbiya ishlarini eng yuqori darajaga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni; ta’lim maqsadi va ta’lim natijasi o‘rtasidagi tafovutni uzluksiz kamaytirishni; ta’lim vositalarining ta’lim jarayoniga muvofiqligini ta’minlashni; o‘quv materiali va faoliyat usullarini bir vaqtning o‘zida o‘zlashtirishni taqozo etadi.



1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn tahlili asosida o‘qish savodxonligini shakllantirishning tashkiliy tuzilmasi

Ko‘rinadiki, o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ishi, asar tahlilining ajralmas qismi hisoblanadi. So‘zning lug‘aviy ma’nosini aniqlash matn mazmunini tushunishga, uni o‘quvchilar tafakkurida jonlantirishga, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallif munosabatini aniqlashga yordam beradi. Shunga ko‘ra badiiy asar tahlili matnni o‘rganish faoliyatida asosiy bosqich hisoblanadi. Chunki aynan maqsadga yo‘naltirilgan tahlil turli ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga o‘quvchilarning ijodiy va adabiy-estetik tafakkuri rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot ishimiz bo‘yicha olib borgan izlanishlarimiz natijasida o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning matn mazmuni va unda tasvirlangan voqealarni ko‘z oldiga keltirish orqali asosiy fikr kim yoki nima haqida

borayotganini bilish hamda uni tushunishga imkoniyat yaratadi degan xulosaga keldik.

Tadqiqot muammosi bo'yicha Nukus shahridagi 34-sonli, Chimboy tumani 19-sonli, Kegeyli tumani 9-sonli va 17-sonli, Mo'ynoq tumani 10-sonli, Navoiy viloyati Kenimex tumanidagi 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida 664 nafar o'quvchi ishtirok etdi va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari "yuqori", "o'rta", "past" darajalari bilan baholandi.

Tajriba-sinov ishlari olib borilgan maktablarning 3-4-sinflarida matn tahlili asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini aniqlash bo'yicha so'rovnomalar shaklida nazorat ishlari o'tkazildi.

Keyingi tajriba-sinov bosqichida o'quvchilarning o'qish savodxonligi matn tahlili asosida baholash mezonlari ishlab chiqildi va uning natijalari tajriba maydonlari sifatida ko'rsatilgan maktablarning boshlang'ich sinflarida amaliyotga joriy etildi.

